Narmuratov Zayniddin Radjabovich (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi;
e-mail: zayniddin.tersu@mail.ru)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI BA’ZI SCIENCE/ILM KONSEPTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada frazeologizmlarning shakllanishi, etimologiyasi, semantik-strukturasi, tarjima muammolari, ularning lingvomadaniy xususiyatlariga oid tadqiqotlar nazariy jihatdan o‘rganilib chiqilgan va ularga konseptual munosabat bildirilgan. Chog‘ishtirilayotgan tillarda science/ilm konseptli frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari amaliy misollar bilan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: frazeologizm, ilm, ekvivalent, maqol, frazema.*

Нармуратов Зайниддин Раджабович (преподаватель Термезского университета экономики и сервиса;
e-mail: zayniddin.tersu@mail.ru)

ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ КОНЦЕПТОВ SCIENCE/НАУКИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье анализируются теоретические исследования формирования, этимологии, семантической структуры, проблем перевода и исследования лингвокультурных особенностей фразеологизмов, а также представлен концептуальный подход к ним. Специфические особенности фразеологических единиц с концептом наука/фильм в сопоставляемых языках иллюстрируются практическими примерами.*

Ключевые слова: *фразеология, наука, эквивалент, пословица, фразеологизм.*

Narmuratov Zayniddin Radjabovich (Teacher, Termez University of Economics and Service)
e-mail: zayniddin.tersu@mail.ru

SPECIFIC FEATURES OF SOME SCIENCE/ILM CONCEPT PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. *This article analysis of theoretically studies the formation, etymology, semantic structure, translation problems, and research on their linguistic and cultural characteristics of phraseologisms and presents a conceptual approach to them. The specific features of phraseological units with the concept of science/ilm in the languages being compared are illustrated with practical examples.*

Keywords: *phraseology, Science, equivalent, proverb, phraseology.*

Kirish (Introduction). Bugungi kunga kelib, dunyo tilshunosligida frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari va ularning shakllanish omillarini lingvomadaniy aspektda o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, muayyan xalqning dunyoqarashi, urf-odat va an’analarini o‘zida aks ettiruvchi ilm mazmunli frazeologik birliklarni ilmiy-nazariy asoslash, ularni semantik-struktur va lingvomadaniy jihatdan yoritish, noqardosh tillardagi ekvivalentini aniqlash orqali yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish yuzasidan ilmiy asoslangan konsepsiyalarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Tilshunoslikda frazeologik birliklar masalasi bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, E.Begmatov, A.Madvaliyev, N. Mahkamov, T.Mirzayev kabi tadqiqotchilar tomonidan nashrga tayyorlangan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da [1] o‘zbek tilidagi frazeologizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari misollar asosida ochib berilgan. Sh. Rahmatullayev tomonidan nashrga tayyorlangan “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da esa frazeologizmlarning turli ma’nolari xususida muhim ma’lumotlar keltirilgan [6]. Xorijiy tadqiqotchilardan biri L. Vasilyeva o‘zining tadqiqotlarida ingliz tilidagi frazeologizmlarning badiiy jihatlariga o‘z e’tiborini qaratgan [7].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). İngliz va o‘zbek tillaridagi ba’zi science/ilm konseptli frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, analiz, sintez kabi metodlaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Inglizcha *Science* konseptiga o‘zbek tilidagi *ilm* leksemasi ekvivalent bo‘ladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga ko‘ra, ilm (arabcha so‘z bo‘lib, bilim, fan nazariyasi): 1. O‘qish-o‘rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishadigan bilim, ko‘nikma, ma’lumot. 2. Ish faoliyatning ilm bilan bog‘liq sohasi, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi, fan. 3. Ish faoliyatining ma’lum bir sohasiga oid bilim, ta’limot, malaka. Ilm olish borasida Payg‘ambar alayhissalom “Ilm olish – har bir musulmon erkak-ayolga farz (majburiy)” deganlar. Yana u zot “Hatto Xitoydan bo‘lsa ham, borib ilm o‘rganib kelinglar” deb nasihat qilganlar. Chunki ilm izlash, uni egallash – Islom dinining eng asosiy talabi, Alloh taolo bandalariga buyurgan ishdir [1;24-b.].

Qur'oni karimning Hazrati Payg'ambarimizga tushgan birinchi oyati "Iqro", ya'ni "O'qi" deb boshlangan edi. Payg'ambar alayhissalom urushda asir tushgan odamga ozod bo'lish uchun 10 ta musulmonga o'qish, yozishni o'rgatishni shart qilib qo'yganlar. Ana shularning o'ziyoq dinimizda *ilm* olishga judayam ko'p ahamiyat berilganini bildirib turibdi. Yurtimizda azaldan ilmu ma'rifatga katta e'tibor berilgan. Imom Buxoriy, Zamaxshariy, Imom Termiziy, Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Ulug'bek, Navoiy kabi ulug' bobolarimizning ilm sohasidagi ishlarini butun dunyo tan olgan. Ilm leksemasi frazeologik birliklarda ifodalanib, turli xil ma'no-mazmunni ifoda etadi. [5;103-b.].

Inglizcha: *To bite the granite of science* iborasi murakkab ilmiy o'rganishning qiyin tabiatini va murakkab bilimlarni egallash uchun zarur bo'lgan intellektual mehnatni tasvirlaydigan aniq bir metaforadir. Bu ingliz madaniyatida sabr-toqat, mehnat va bilimni o'zlashtirishga bo'lgan yondashuv qadrlanishini aks ettiradi, xususan ilm-fan sohasida [7;72-b.]. O'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmasa-da, *ilm olishga kirishmoq* frazeologik birligi ma'no va mazmuni bilan mos keladi. Idioma ilmiy bilimlarni olish jiddiy va mashaqqatli vazifa ekanligini, ko'pincha, chidamlilik va qat'iyatni talab qilishini ham ta'kidlaydi.

Inglizcha: *Know the tricks of the trades* "savdogarning hiyla-nayranglarini bilmoq" ma'nosini anglatadi. O'zbek tilidagi *Biror sohaning piri bo'lmoq* frazeologik birligi mazmun-mohiyati bilan to'g'ri keladi. Ingliz tilidagi idioma tarkibda qo'llangan *trade* [savdogar], *trick* [hiyla] so'zlari o'zbek tili tarkibidagi iborada qo'llanmagan.

O'zbekcha variantda esa *pir* leksemasi qo'llanilgan. Chog'ishtirilayotgan frazeologik birliklarning inglizcha variantida salbiy ma'no izohlangan bo'lsa, o'zbekcha idiomada ijobiy ma'no kuzatilyapti. Qiyoslanayotgan frazemalar tarkibidagi so'zlarning turlicha ekanligi ikki xalqning lingvomadaniyati bir-biridan farq qilib turishidan dalolat berib turibdi. Bu o'rinda xalq o'zining lingvomadaniyatiga xos bo'lgan leksemadan foydalangan. Ikki etnos frazeologik birliklarining ma'no va mazmuni teng bo'lgani bilan ularda ishlatilgan ayrim so'zlar faqat shu tilga oid leksemalardir hamda ikkala xalqning o'zigagina xos bo'lgan odatlarini ifodalaydi [6;19-b.].

Ingliz lingvomadaniyatida savdogarlar juda ayyor kishilar hisoblanadi. Shu bois ham qo'llanilgan idiomada *"tricks of the trades"* birikmasi ishlatilgan hamda ayyor savdogarning hiylalarini biladigan *aqlli, ilmli, bilimdon inson* obrazi namoyon bo'lmoqda. O'zbek lingvomadaniyatida esa *pir* sufiylik an'anasida tariqatlarning oliy rahnamolari yoki obro'li rahnamolar. Aholi orasida *Pir* tushunchasi avliyo, ma'lum bir hunarning asoschisi ma'nosida ham ishlatiladi. Shu bois ham o'zbekcha iborada *pir* leksemasi ishlatilgan. Mazkur ibora o'zbek xalqi orasida biror-bir sohaning eng yaxshi mutaxassisi degan mazmunda foydalaniladi [6;13-b.].

Inglizcha va o'zbekcha berilgan frazeologik birliklarda ham *ilm* leksemasi paremalarni hosil qilishda mantiqiy asos sifatida faol qatnashgan. Biroq tahlil etilgan misollardan ma'lumki, jadvalda keltirilgan paremalar ikki etnos lingvomadaniyatida katta farq bilan ishlatiladi. Inglizcha idiomalarda ilmning nihoyatda ko'p ekanligi ularni o'rganishda bir inson hayoti yetmasligi, ilm tortishuvda shakllanishi, ilmda tajriba muhimligi kabi qarashlar xalq tasavvuri orqali shakllangan paremalar yordamida aniqlangan bo'lsa, o'zbekcha ekvivalentida esa ilmning inson baxtli bo'lishi uchun yo'l ekanligi, inson go'zal xulqli bo'lish kerakligi va odob bilan ilm egizak ekanligi xalq tasavvuridagi paremalarda o'z aksini topgan.

Inglizcha *The Devil knows many things because he is old* iborasi "shayton ko'p narsani biladi, chunki u qari" ma'nosini beradi [7;61-b.]. Bu o'zbek tilida *Qari bilganni pari bilmas* idiomasi orqali ifodalanadi. Frazemaning o'zbekcha variantida ijobiy ma'no kuzatilyapti. Agar inglizcha varianti bilan solishtiradigan bo'lsak, o'zbek tilida bu ijobiy xislatlarni ko'rsatadi, ya'ni, o'zbek xalqi nuroniy, uzoq yashab kelayotgan qariyalarni hayot tajribasini qadrlashadi va ularni, hatto pariga tenglashtiradi. Bu o'rinda iborada ikki tilda katta farq bilan ishlatilishini ko'rsatyapti. U holda inglizcha ushbu iboraga boshqacha o'zbekcha variant qidirish ehtiyoji tug'iladi. Yoki inglizcha idiomaga mualliflar tomonidan noto'g'ri variant qo'yilgan, degan xulosaga kelinadi. Chunki o'zbek xalqi tomonidan *shayton* obrazi hech qachon ijobiy baholanmagan.

O'zbek tilida ko'plab frazeologizmlar hayvonlarning u yoki bu xususiyatlarini simvollashtirish asosida shakllangan. Bu qatordagi frazeologizmlarda ijobiy va salbiy ma'no ifodalovchi frazemalar ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan, ilonning turli salbiy belgi-xususiyatlari asosida bir qancha frazemalar shakllangan. Jumladan, *yerning tagida ilon qimirlasa bilmoq* iborasi o'ta sezgir, juda mug'ombir kishilar xarakterini ifodalash maqsadida yaratilgan, chunki ilon aynan shunday xislatga ega. Bu ibora insonning juda sezgir, kuzatuvchan va barcha voqealardan xabardor bo'lishini anglatadi. Ya'ni, u yer ostida, ko'zga ko'rinmaydigan joyda biror narsa ro'y berayotganini ham bilib olish qobiliyatiga ega ekanligini bildiradi [3;14-b.].

O‘zbek madaniyatida bu ibora tajribali va dono odamlarni tasvirlashda qo‘llaniladi. O‘zbek xalqida bunday odamlar, ko‘pincha, yoshi ulug‘, hayotda ko‘p narsani ko‘rgan va o‘z hayotiy tajribalariga asoslanib harakat qiladigan kimsalar sifatida tan olinadi. Bu ibora ham dono, ko‘p narsadan xabardor odamni ulug‘-lash uchun ishlatiladi. Ushbu ibora o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham keng tarqalgan bo‘lib, u, ko‘pincha, aql-zakovat, tajriba va chuqur kuzatuvchanlikni ifodalaydi. O‘zbek lingvomadaniyatida bunday iboralar or-qali insonlarning qanday bo‘lishi, qanday fazilatlar ulug‘lanishi kerakligi haqida tushunchalar aks ettiriladi va o‘zbek xalqining hayotiy tajriba va dono qarorlar qabul qilishga katta ahamiyat berishini aks ettiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, qiyos qili-nayotgan frazeologik birliklarning har biri ma’lum darajada xalqning qadriyatlarini, madaniyatini, odat-marosimlarini o‘zida aks ettirishi bilan birga, etnosning o‘tmishini va kelajagini anglatadi. Ikki tildagi tah-lilga tortilgan paremalar tematik va mantiqiy shakllanishi bo‘yicha bir-biridan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. IV jild, Toshkent, davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 688-bet.

(2). Ernest Miller Hemingway. The old man and the sea. United States, 1952, 127 p.

(3). Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. Roman, mas’ul muharrir A.Samad. Toshkent, “Meriyus”, 2015, 548-bet.

(4). Mark Twain. The complete short stories. Bantam Classic reissue edition. New York, 2005, 737 p.

(5). O‘zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar. T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov. Toshkent, «Sharq», 2005, 253-bet.

(6). Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1992, 380-bet.

(7). Васильева Л. Краткость–душа остроумия. Английские пословицы, поговорки, крылатые выраже-ния:. М., ЗАО Центрполиграф, 2006, 350 с.

Abdujalilova Ruxshona Abdug‘afforzoda (Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filliali ingliz tili o‘qituvchisi; e-mail:ruxshonaabdujalilova9418@gmail.com)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLAR BORASIDAGI QARASHLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi kriminalingvistik birliklar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, funksiyalari va ishlatilish sohalari qiyosiy tahlil qilinadi. Kriminalingvistika tilshunoslik-ning muhim yo‘nalishi sifatida jinoyat tergovida til birliklaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganadi. Ingliz tilidagi kriminal terminologiya va o‘zbek tilidagi kriminalingvistik birliklar tuzilishi, uslubi va se-mantik jihatlari o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *kriminalingvistika, jinoyat terminologiyasi, ingliz tili, o‘zbek tili, kriminal birliklar, us-lubiy tahlil, badiiy matn, publitsistik uslub, tilshunoslik, qiyosiy tahlil.*

Абдужалилова Рухшона Абдугаффорзода (преподаватель английского языка Термезского филиала Ташкентской медицинской академии; e-mail: ruxshonaabdujalilova9418@gmail.com)

ВЗГЛЯДЫ НА УГОЛОВНО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация. *В статье дается сравнительный анализ криминологических единиц английского и узбекского языков, их специфические особенности, функции и сферы использования. Судебная лин-гвистика, как важное направление языкознания, изучает возможности использования языковых единиц в расследовании преступлений. Выявлены различия и сходства между структурой, стилем и семантическими аспектами уголовной терминологии на английском языке и уголовно-правовыми языковыми единицами на узбекском языке.*

Ключевые слова: *криминальная лингвистика, криминальная терминология, английский язык, узбекский язык, криминальные единицы, методологический анализ, художественный текст, публи-цистический стиль, лингвистика, сопоставительный анализ.*

Abdujalilova Ruhshona Abdugafforzoda (English teacher at the Termez branch of the Tashkent Medical Academy; e-mail: ruxshonaabdujalilova9418@gmail.com)

VIEWS ON CRIMINALINGUISTIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LINGUISTICS

Annotation. *This article provides a comparative analysis of criminal linguistic units in English and Uzbek, their specific features, functions and areas of use. Criminal linguistics, as an important area of lin-guistics, studies the possibilities of using language units in criminal investigation. The differences and simi-*